

“O‘zbektelekom”AKda 2024-yil uchun korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining amal qilishi haqida
UMUMIY HISOBOT *

I. Kompaniyaning Korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar dasturi bajarilgani to‘g‘risida umumiy axborot

2024-yilda Kompaniyaning Qoraqalpog‘iston, Navoiy va Xorazm filiallarida “O‘zbektelekom”AK (keyingi o‘rinlarda – Kompaniya) korrupsiyaga qarshi ichki hujjatlari talablari ijrosini monitoring qilish bo‘yicha o‘rganish olib borildi. O‘rganish natijalari umumlashtirilgan holda Kompaniya rahbariyatiga taqdim etildi. Shuningdek Kompaniyaning 2024-yil 12-sentabrdagi 285-son buyrug‘i asosida ISO 37001 standarti bo‘yicha ichki audit o‘tkazilib audit natijalari tegishli hisobot bilan rasmiylashtirildi.

II. Siyosat va tartib-taomillar

2024-yilda Kompaniyada O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-iyunda qabul qilingan “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi O‘RQ-931-son Qonuni asosida Kompaniya aksiyadorlarining 2024-yil 15-avgustdagi umumiy yig‘ilishi (64-son bayonnomasi) qarori bilan “O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasida manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish to‘g‘risida”gi Nizomning yangi tahriri va Kompaniyaning 2024-yil 20-dekabrdagi 424-son buyrug‘i bilan “O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasi xodimlari uchun odob-axloq qoidalarining yangi tahriri tasdiqlandi. Shuningdek “O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasida kontragentlarni tekshirishga oid Yo‘riqnomaning yangi tahriri va Kompaniyaning Xaridlar siyosati tasdiqlandi (Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha qolgan hujjatlar - siyosatlar, reglamentlar, standartlar, yo‘riqno malar -jami 12 ta hujjat 2022-yil tasdiqlangan).

III. Xavf-xatarlarni baholash

2024-yilning 18-mayda Kompaniyaning yangi tahrirdagi Ustavi asosida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash ishlari O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentlikning <https://e-anticor.uz/> platformasida baholandi. Baholash natijalariga ko‘ra Kompaniyaning 33 ta funksiyasidan korrupsiyaviy xatari “Yuqori” bo‘lgan – 11 ta, “O‘rta” – 19 ta va “Past” – 3 ta aniqlandi. Xatar darajasi “Yuqori” va “O‘rta” bo‘lgan xatarlarni pasaytirish bo‘yicha chora tadbir tasqdiqlanib tegishli ishlar amalga oshirilmoqda.

IV. Amalga oshiriladigan korrupsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillar

Manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish

Joriy yilda O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-iyunda qabul qilingan “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi O‘RQ-931-son Qonuni asosida Kompaniya

aksiyadorlarining 2024-yil 15-avgustdagi umumiy yig'ilishi (64-son bayonnomasi) qarori bilan "O'zbektelekom" aksiyadorlik kompaniyasida manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risida"gi Nizomning yangi tahriri tasdiqlandi. Mazkur Nizom asosida Kompaniya ijro apparatida 182 ta yillik, 29 ta ishga qa'bul qilingandagi va rotatsiya munosabati bilan 116 ta, jami 327 ta ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha deklaratsiya to'ldirildi. Kompaniya filiallari boshqaruv xodimlari tomonidan 475 ta yillik, 737 ta ishga qa'bul qilingandagi va boshqa lavozimga o'tish munosabati bilan 602 ta, jami 1 814 ta ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha deklaratsiya to'ldirildi. Ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha deklaratsiyalarini tahlil qilish natijasida Kompaniya filiallarining birida yaqin qarindoshlarning bir biriga to'g'ridan to'g'ri boysunuvi bilan bog'liq manfaatlar to'qnashuvi holati aniqlanib Nizom talablari asosida tartibga solindi (xodim boshqa bo'limga o'tkazildi).

Korrupsiyaga qarshi qoidalarini Kompaniya sharnomalariga kiritish

Kompaniya tomonidan tuziladigan shartnomalarga quyidagi korrupsiyaga qarshi kurashish shartlari kiritilgan:

1.1. Tomonlar va ularning har biri poraxo'rlik va korrupsiyaga mutlaqo toqat qilmaslik siyosatiga ega ekanligini tan oladilar va tasdiqlaydilar, bu esa korrupsion harakatlarni to'liq taqiqlashni va to'lovlarni osonlashtirishni nazarda tutadi, uning maqsadi tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq rasmiyatchiliklarni soddalashtirish, tezkorlik bilan ta'minlashdir, muayyan masalalarni hal qilish. Tomonlar o'z faoliyatida amaldagi qonunchilik va uning asosida ishlab chiqilgan, poraxo'rlik va tijoriy poraxo'rlik bilan kurashishga qaratilgan siyosat va tartiblarga amal qiladi.

1.2. Tomonlar o'zlari va ularning xodimlari har qanday shaxsga (jumladan, jismoniy shaxslarga, tijorat tashkilotlariga va davlat mansabdor shaxslariga) korrupsion to'lovlarni (pul yoki qimmatbaho sovg'alar) taklif etmasligi, taqdim etmasligi, bermasligi yoki unga rozilik bermasligiga kafolat beradi va xech qanday shaxsdan to'g'ridan-to'g'ri yoki belvosita har qanday korrupsion to'lovlarni (pul yoki qimmatbaho sovg'alar) olishga, qabul qilishga rozi bo'lmaydi.

1.3. Agar tomonlardan biri shartnomaning ushbu bo'limining har qanday qoidalari buzilganligi yoki sodir bo'lishi mumkinligi haqida asosli shubhalarga ega bo'lsa, tegishli Tomon boshqa Tomonni bunday shubhalar yuzaga kelgan paytdan 5 ish kunidan kechiktirmay yozma ravishda xabardor qilishga majburdir. Tomonlardan biri shartnomaning ushbu bo'limi qoidalarini buzganligi faktini tasdiqlangan taqdirda, boshqa Tomon ushbu shartnomani bir tomonlama bekor qilishga haqli.

1.4. Tomonlar korrupsiyaga qarshi qoidalar buzilgan holatda yoki asosli shubhalar tug'ilgan taqdirda, bir-birlarini darhol yozma ravishda (elektron pochta orqali: antikorrupsiya@uztelecom.uz) yoki ishonch telefoni orqali (+998-55-501-77-87) xabardor qilish majburiyatini oladilar. Tomonlar vaziyatni aniqlash maqsadida yozma

tushuntirish so‘rash huquqiga ega bo‘lib, murojaat qabul qilingan tomon 10 (o‘n) ish kuni ichida o‘z bayonotini yoki fikrini bildirishi mumkin

Kontragentlarni tekshirish

2024-yil davomida jami 470 ta kontragent tekshirildi. Tekshiruv natijasida 426 ta ijobiy va 44 ta salbiy xulosa berildi. Salbiy xulosalarning 38 tasi o‘zaro affillangan kontragentlarga, 1 tasi faoliyat turi tanlov predmetiga mos kelmasiligi sababli, 4 tasi ma’lumotlarni to‘liq taqdim etmagan va 1 ta salbiy xulosa tanlov talablariga zid holda noto‘g‘ri hujjat taqdim etgan kontragentlar bo‘yicha rasmiylashtirildi.

Ishga nomzodlarni tekshirish

2024-yil davomida Kompaniya ijro apparatiga 13 ta yangi va Kompaniya filiallaridan 29 ta xodim ishga qabul qilingan. Shuningdek Kompaniya filiallariga jami 737 ta yangi xodimlar ishga qabul qilingan va ularning barchasi o‘rnatilgan tartibda tekshirilgan

V. Ta’lim va kommunikatsiya

Kompaniyada korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha 2024-yil davomida umumiy o‘quv kurslarda 945 ta va Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha maxsus kurslarda korrupsiyaviy xatari yuqori bo‘lgan 30 ta xodimning malakasi oshirilgan.

VI. Korrupsiyaviy xatti-xarakatlar va huquqbuzarliklar to‘risidagi xabarlar

Kompaniyada xodimlarning korrupsiyaviy xatti-xarakatlari, manfaatlar to‘qnashuvi, korrupsiyaga qarshi boshqa qonunbuzarliklar bilan bog‘liq masalalar to‘g‘risidagi aloqa kanallari orqali kelib tushgan xabarlar 2024-yilda mavjud emas.

VII. Monitoring va nazorat

2024-yil davomida Kompaniyaning Qoraqalpog‘iston, Navoiy va Xorazm filiallarida “O‘zbektelekom”AK korrupsiyaga qarshi ichki hujjatlari talablari ijrosini monitoring qilish bo‘yicha o‘rganish olib borildi. O‘rganish natijalari umumlashtirilgan holda Kompaniya rahbariyatiga taqdim etildi.

VIII. Aniqlangan qoidabuzarliklar va ularga ta’sir choralari

2024-yil davomida Kompaniya hodimlari o‘rtasida korrupsiya bilan bog‘liq qoidabuzarliklar aniqlanmadi.

IX. Xulosalar

“O‘zbektelekom” AK 2022-yil 5-sentabr kuni ISO:37001:2016 korrupsiyaga qarshi kurash menejment tizimining xalqaro standartga muvofiqlik sertifikatini qo‘lga kiritdi.

2024-yilning 14-15-noyabrida ISO:37001:2016 standarti talablariga ko‘ra Kompaniyaning korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini ikkinchi kuzatuv auditidan muvofaqiyat bilan o‘tdi.

X. Korrupsiyaga qarshi kurash tizimini yanada rivojlantirish bo‘yicha takliflar va tadbirlar rejasi

Kompaniyaning ISO:37001:2016 korrupsiyaga qarshi kurash menejment tizimining xalqaro standartga muvofiqlik sertifikatining amal qilish muddati 2025-yilning 3-choragida tugashini inobatga olib Kompaniya faoliyatini ISO:37001:2016 standarti bo‘yicha muvofiqlik sertifikatini yangilash. Shuningdek Kompaniyada korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini doimiy ravshda takomillashtirib borish hamda Kompaniyada korrupsiyani oldini olish maqsadida hodimlarining huquqiy ongi va huquqiy bilimlarini oshirish, “Korrupsiyaga qarshi siyosat hamda korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatlar” mavzusida o‘quv kurslari va seminar-treninglar o‘tkazish.